



**“JADIDLARNING MA’RIFIY FAOLIYATI:
G’OYALARI, MAQSADLARI, VAZIFALARI VA TURKISTON
TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI”
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

**PROCEEDINGS
OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE
“EDUCATIONAL ACTIVITIES OF THE JADIDS:
IDEAS, GOALS, TASKS AND THEIR CONTRIBUTION
TO THE DEVELOPMENT OF TURKESTAN”**

TOSHKENT 2023, 6-7-MART



**“JADIDLARNING MA’RIFIY FAOLIYATI: G’OYALARI,
MAQSADLARI, VAZIFALARI VA TURKISTON
TARAQQIYOTIGA QO’SHGAN HISSASI”**

MAVZUIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

M A T E R I A L L A R I

P R O C E E D I N G S

**OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE "EDUCATIONAL
ACTIVITIES OF JADIDS: IDEAS, GOALS, TASKS AND
CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF TURKESTAN"**

**2023, 6-7-MART
TOSHKENT**

UO'K: 66.3(50')
KBK: 323.1(092)(575.1)
H 31

“Jadidlarning ma’rifiy faoliyati: g’oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo’shgan hissasi” xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari [to’plam] / mas’ul muharrir t.f.d., prof. B.V.Hasanov. – Toshkent: 2023. – 516 bet.

Mas’ul muharrir:
t.f.d., prof. B.V.Hasanov

Muharrirlar:
Bahrom IRZAYEV
Murod ZIKRULLAYEV
Zebuniso KAMALOVA
Muslim ALIJONOV

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatining asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo’lgan barcha sohalarida innovatsion g’oyalarni joriy qilish edi. Aynan shuning uchun ham Yangi O’zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etishda jadidlarning gumanistik qarashlariga tayanilmoqda, ularning merosiga ma’naviy kuch-quvvat manbai sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur to’plam 2023-yil 6-7-martda Toshkent shahrida O’zR VM huzuridagi Qatag’on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda boshqa tashkilot va muassasalar hamkorligida o’tkazilgan **“Jadidlarning ma’rifiy faoliyati: g’oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo’shgan hissasi”** mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarini o’z ichiga olgan.

Unga kiritilgan maqolalarda Turkiston jadidchilik harakati va uning ma’naviy-ma’rifiy asoslarining mohiyati, jadidlarning xalq tafakkurini o’stirish, ma’naviyatini boyitish yo’lida olib borgan kurashlari, jadidchilik g’oyalarning Turkistonga tarqalishida milliy matbuot, badiiy adabiyot va teatrning ahamiyati va ularning ijodida Milliy istiqol g’oyasining ifodalanishidagi o’ziga xosliklarni o’rganish nazarda tutilgan. Shuningdek, O’zbekiston tarixining o’ta murakkab va ziddiyatli davrining so’nggi yillarda tarixchi, siyosatshunos, adabiyotshunos, faylasuf va boshqa soha mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni to’ldiradi va tarixan to’g’ri xulosalarga kelishga ko’mak beradi.

To’plam muqovasini bezashda O’zbekiston Respublikasi san’at arbobi, I-darajali davlat mukofoti sovrindori, professor Aliqulov Alisher mahmudovichning 2001-yilda ishlagan “Xalq qo’zg’olonlari va jadidchilik harakati” asaridan foydalanildi.

ISBN 978-9943-9607-3-2

Marat Kashafutdinov “Rizouddin ibn Faxriddinning hadis sharhchiligi” nomli magisterlik tadqiqotida Rizouddin ibn Faxriddinning hadis ilmida tutgan oʻrni va hadislarini sharhlashdagi oʻziga xos uslublarini yoritgan. Muallif tadqiqotda asosan olimning “Javome ul-kalim” asarini ob’ekt sifatida olib, hadislarini sharhlashdagi mazhablarga koʻra sharhlanishini va bidatchilarga qarshi hadislarini qoʻllanilishi kabi masalalarni zikr qilib oʻtgan¹.

Anqara unversiteti magistranti Ilyas Miftaxov “XX asrda Qozon xonligida tarix yozuvchiligi” nomli magisterlik dissertatsiyasida Qozon xonligi paydo bolishi tarixi va XX asrda tarixiy asarlar yozgan olimlar qatorida Rizouddin ibn Faxriddinning hayoti va asarlarini alohida bob sifatida tadqiq qilgan².

Bugungi kunda, ba’zi turk tadqiqotchilari Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosini oʻrganishda va tahlil qilishda tarixshunoslik sohasida noan’anaviy boʻlgan empirik metoddan foydalanmoqdalar. Ularning tadqiqotlarida Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy me’rosiga bir tarafdin jadid sifatida, ikkinchi tomondan islom ulamosi sifatida qarash sezilib turadi. Yuqoridagi misollardan qat’iy nazar turk tadqiqotchilarining koʻpchiligi Rizouddin ibn Faxriddin ijodiy merosini va uning islom ilmlariga oid asarlarini oʻrganishda turkumlashgan va asosan biografik uslublar orqali yondashish degan hulosaga kelish mumkin. Shu bilan birgalikda, olimning hadis sohasidagi faoliyati va “Kutubi sitta va mualliflari” asari turk ilmiy doiralari haligacha tadqiq qilinmagani, Rizouddin ibn Faxriddin hayoti va ilmiy faoliyatini oʻrganish naqadar zarurat ekanligini koʻrsatadi.

ABDULLA AVLONIY SHE’RIYATINING POETIK IFODA RAKURSLARI

Sevinch YOQUBOVA,

Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti (Oʻzbekiston)

Jadid adabiyoti “an’ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga keldi”³. She’riyat shakli, mazmun, ifoda va uslub nuqtai nazaridan yangilandi. Ushbu adabiyot oʻzida jadidlar ma’rifiy faoliyati: gʻoyalari, maqsadlari, vazifalarini badiiy aks ettirdi. Oʻzining tez tarqalishi va keng auditoriyani qamrashi, estetik ta’sirchanligi bobida nasr va dramaturgiyaga nisbatan yetakchilik mavqeiini saqlab qoldi.

She’riyat dastavval, oʻz mazmunini tubdan yangiladi. Chunki adabiyotni tashviqot vositasi⁴ sifatida tushungan jadid shoirlari imkon qadar real hayotga yaqinlashishga harakat qilishdi. Ular an’anaviy obrazlar mazmunini oʻzgartirishdi. Aniqliq aytganda, obrazlar sistemasini sezilarli darajada kengaytirishdi. Lirikani xalq jonli tiliga yaqinlashtirishdi va badiiy ifodada soddalikka intilishdi.

¹ Marat Kashafutdinov. Rizaeddin b. Fahreddin’in Hadis Sherhchiligi. Yükksek Lisans Tezi. Ankara.: 2012. 126 s.

² İlyas Miftakhov. XX-yüzyülda Kazan Bölgesi’nde Tarih Yazırcılıđı. Yükksek Lisans Tezi. Ankara.: 2011. 134 s.

³ Afoqova N. Jadid gʻazaliyoti. – Toshkent, «Fan» nashriyoti, 2005. – B. 3.

⁴ Jadid ma’rifatparvarlik harakatining gʻoyaviy asoslari. Toshkent Islom universiteti NMB. – Toshkent, 2016. – B. 216 .

E'tirof etmoq lozimki, o'tgan asrning 20-yillari she'riyatida yangi mazmun dastavval g'azal, masnaviy, ruboiy, qit'a, tarje'band, tarkibband, musammat singari an'anaviy, ammo shakliiy jihatdan qisman yangilangan janrlar doirasida ifoda etildi. Chunki birinchi navbatda kitobxonning zavqi, asrlar davomida shakllangan didini e'tibordan soqit qilish mumkin emasdi. Shu tarzda, asta sekin barmoq va sarbast vaznlari, shuningdek, xalq qo'shiqlari yo'liga o'tish, ularni mazmunan yangilash jarayoni ham boshlandi.

Yangilanishning ikkinchi omili sifatida shubhasiz, davr voqealari, kishilardagi tafakkuriy evrilishlar, boshqa xalqlar adabiyoti bilan o'zaro adabiy-madaniy aloqalarni ko'rsatish o'rindir. Ammo barcha o'zgarishlar milliy shoirlarimiz tafakkur tarzi, ko'ngil kechinmalarida sodir bo'lib, badiiy so'zga evrildi. Yangi mazmun o'ziga xos badiiy shakl va ifoda uslubida bo'y ko'rsatdi.

Jadid adabiyotida shaklan aruzni, mazmunan barmoqni eslatuvchi ijod mahsullari – "milliy she'r"lar yuzaga keldi. Abdulla Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909), Hamza Hakimzodaning "Milliy ashulalar" (1915), Tavalloning "Ravnaq ul-islom (milliy she'rlardan 1-juz)" kabi to'plamlarini kuzatish shuni tasdiqlaydiki, hali shakl to'liq yangilanmay turib, jadid she'riyatida adabiy istifodaga noodatiy mazmun, yangicha poetik obraz va ifodalar kiritila boshlagan. Binobarin, mutlaqo yangi shakllarga o'tish oldida turgan jadid shoirlari shakliiy-uslubiy izlanishlar: "qora elimizni tushunuvina o'ng'ay bo'lsin uchun" (Hamza) qilinayotganiga e'tibor qaratishi bejiz emasdi.

Sir emaski, mumtoz she'riyatda tasavvufiy ohanglar, ilohiy ishq tasvirlariga keng o'rin berilgan edi. Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti, xususan she'riyatida lirik qahramon ijtimoiylashdi. Endi u zulm va istibdodga qarshi kurashuvchi, jaholat va qoloqlik bilan murosa qilishni istamaydigan shaxsga aylandi. Zotan Turkistonda milliy uyg'onish deb nom olgan bu harakat XIX asr oxirlaridan boshlandi. O'sha davrlardan e'tiboran she'riyatning mavzusi va uslubi yangilana boshladi. Ma'rifatparvarlik harakatining mantiqiy davomi bo'lgan jadidchilik va uning badiiy adabiyot maydonidagi ifodasi, xususan jadid she'riyatining ilk bosqichida ko'p asrlik adabiy an'analar qolipi parchalandi.

"Bu bosqich she'riyatda "tajriba bosqichi" bo'ldi va u badiiy ifodaning to'porilikdan jozibadorlikka o'tishiga zamin hozirladi. "Kuydan da'vatga" aylangan bu davr she'riyatini ma'rifiy ruhda she'rlar bayozi, deyish mumkin. Unda "erkinlik", "taraqqiyot", "ma'rifat" mavzulari qizil chiziq bo'lib o'tganini ko'ramiz"¹. deb yozadi professor B.Qosimov. Adabiyotshunos olim XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrdagi milliy adabiyotimizda badiiyat u qadar yuksak emasligini quyidagi faktorlar bilan izohlaydi: a) fikr aytish muhim sanala boshlagani; b) da'vatkorlik va tanqid ruhining ustuvorligi shoirlarni oddiy va keskin ifodalar qo'llash, poetik hashamdorlikdan qochishga undashi; v) shakldan ko'ra mazmunning yetakchiligi; g) yangi shakl va janrlarni sayqallash, uslubni takomillashtirish harakati avj olishi².

She'riyatni mazmunan va shaklan, shuningdek mundarijaviy jihatdan yangilash ehtiyoj va zarurat edi. Chunki davr ruhi va voqeligi aks ettirish orqaligina yetarlicha ta'sir kuchiga ega bo'lish mumkin edi. O'tish davrining qisqa vaqtda xalqni millatga aylantirish talabi mavjud adabiy an'analarni yangilash, yanada aniqroq aytganda, she'riy sistemalar, qofiya tizimlari, she'riy shakllar, poetik obrazlar olamini ma'rifatparvarlik va jadid adabiyotlari bag'riga singdirib yuborish orqali hozirjavob yangi adabiyot yaratishni taqozo qilardi.

Jumladan: So'fizodaning "O'qunglar, onalar" musaddasi, Avloniyning "Biz nelar qilamiz?", "Ikki sado", "Jarida muhiblarina", "Shoir ila to'ti", "Iffatli insonlar", "Gapurmanglar", "Sadoyi

¹ Qosimov, B. Milliy uyg'onish: jасorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B.128

² Qosimov, B. O'sha joyda.–B.128.

bulbul”, “G’alat”, Hamzaning “Ahvolimiz”, “Jahlda qolganlarmiz” kabi she’rlarida taraqqiyparvarlik davri she’riyatiga xos shikoyat, hasbi hol, millat axloqi masalalari aks etdi. “Gapurmanglar” she’rida an’anaviy ishq mavzusi va tasvir usulini yangilashga chaqiriq, ijtimoiy nuqsonlarni bartaraf qilishdan bahslashiga da’vat o’z ifodasini topadi:

Sizga arzim budur, ey shoiron, ishqiya nazm etmang,

Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan gapurmanglar.

Keling emdi yozaylik, so’zlashaylik kamchiliklardan’.

Ta’kidlash o’rinliki, bu o’rinda keskin inkorni izlash to’g’ri emas. Agar keskin inkor izlansa, adabiy vorislik qonuniyati unutilgan bo’ladi. Zotan ma’rifatparvar shoirlar mumtoz poetik an’analar doirasida ijod qilib, jadid adabiyotining poydevoriga asos solishdi².

A.Avloniy ijodida “gul” obrazi muayyan transformatsiyaga uchradi:

Xor alindan bag’ri qon o’lmish, bo’yanmish qona gul,

G’uncha bag’rin chok etub, afg’on qilur qfsona gul...

Yuzdagi holi emas, zolim tikonning yorasi,

Kecha-kunduz zahmi g’am birlan butun o’rtona gul...

Subhidamda yuzlarindan mavj uran shabnam emas,

Xor zulmindan to’kar ko’z yoshini durdona gul...

Gulning qizilligi uning bag’ri qonligidan. G’uncha holatidan gul bo’lib ochilishida bag’rini chok etmoqlik namoyon. Gul yuzidagi xol emas, balki zolim tikanning yarasi. U kechayu kunduz shu yaraning zaxmidan o’rtanadi. Shu bois, subhidamdagi tomchilar ham jo’n shabnam emas, balki gulning ko’z yoshlaridir.

Anglashiladiki, jadid adabiyoti, xususan she’riyati ma’rifatparvarlik adabiyotining mustahkam poydevori, ya’ni ichki adabiy-estetik bazasi ustida qad rostladi. Kayfiyat-hollari o’zlariga nisbatan yaqin bo’lgan tatar, turk, ozarbayjon, boshqird va jahon adabiyoti ilg’or tajribalariga tayandi. Millatni uyg’otish niyatidagi ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik va jadidchilik harakatlari va ularning badiiy tazohiri bo’lgan adabiyot bir-birining mantiqiy davomi bo’lgan o’zaro izchil va dinamik hodisadir.

Milliy she’riyatimiz rivoji uchun kuy, ohang izlab tinimsiz izlanishda bo’lgan Abdulla Avloniy “Millatga xitob” she’rida Sharq kuylari ritmiga tayanadi va da’vatkor ruhni ifodaga ko’chiradi:

E!.. Tokayg’acha g’afolat ichra yotamiz!

Keling yoshlar, jaholatni otamiz.

Bizga bu kun ilma kirishmak kerak,

Bizga bu kun ilma tirishmak kerak³.

Abdulla Avloniy o’zining barmoq vaznidagi ilk she’rlarini xalq qo’shiqlari usulida yozdi. Bu hol ma’rifatparvarlik va jadidchilik davri shoirlari folklor va yangi davr milliy she’riyatini o’zaro sintezlashtirish va ichki omillar hisobiga yanada milliylashtirishga intilishganini ko’rsatadi. Jumladan, A.Avloniy ham bu yo’sinda ibratli izlanishlarni amalga oshirdi. Shoirning bir qator she’rlari namki

¹ Sabzazor. Baëz. To’plovchi va nashrga tayyorlovchi: Munavvar qori. – Toshkent: Ilin bosmaxonasi, 1914.

² O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Sharq qo’lyozmalari xazinasi, asosiy fond, toshbosma. Inv №12891. – B. 24.

³ Nazarova Sh. Jadid she’riyatida Navoiy an’analari. // Journal of Central Asian Renaissance. 2021. Volume 2, Issue 2. P. 26-36.

³ Avloniy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat. 2006.– B.175

xalq qo'shiqlaridan, balki mumtoz maqom va savtlarning kuy va ohanglaridan, hatto mashhur opera asarlaridan ham ilhomlanib bitilgan. A.Avloniyning "Millatga xitob" she'ri sharq kuylaridan; "Oh bag'ri qonim" she'ri "Rost" kuyidan; "Saodat shundadir" she'ri "Qoshg'archa" va "Anorxon yorim"dan; "Jahldan nafrat" she'ri "Dugohi"dan; "Munojot" she'ri "Segoh"dan ta'sirlanib, ularning kuy va ohanglari ruhida yuzaga keldi. Shuningdek, "Ilma targ'ib" she'ri "Layli Majnun" operasidan; "Milliy nag'ma" she'ri "Shoh Abbos" operasidan ta'sirlanish natijasida yorug'likka chiqdi.

Umuman, Abdulla Avloniy ma'rifatparvarlik va jadid she'riyatini shakl, mazmun, ifoda va uslub nuqtai nazaridan yangilashga munosib hissa qo'shdi. Shoir lirik merosining poetik ifoda rakurslari rang-barang bo'lib, ular o'z davri ilg'or g'oyalari ni ifodalashga xizmat qildirildi. A.Avloniy o'z she'riyatida jadidlarning g'oyalari, maqsadlari va vazifalarini badiiy aks ettirdi. An'anaviy she'riy shakllar va ifoda tarziga amal qilgan holda, uni yangicha ruh, millat dardlari bilan boyitishga intildi.

JADIDLAR YOXUD XAYRIYA VA HOMIYLIKNI ODAT QILGAN METSENATLAR FAOLIYATI TARIXIDAN

Diyorjon ABDULLAEV,

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,

tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (O'zbekiston)

Ma'lumki, tarixiy ildizlari o'tmishga borib taqalgan, milliy qadriyatlar hisoblangan xayriya, mehr-muruvvat, saxiylik, homiylik masalalari tariximizning turli davrlarida turlicha qarashlar, yangicha yondashuvlar tizimida shakllanib kelgan. Xususan, Turkiston o'lkasini ruslar bosib olgungacha bo'lgan tarixiy davrlarda xayriya, saxiylik va homiylik masalalari sharqona tarzda namoyon bo'lgan edi. Keyingi mustamlaka davrida garchand erkinlik o'z qo'limizda bo'lmasada, yangicha yondashuvlar, qarashlar ostida milliy qadriyatlar rivojlanib bordi. XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, Turkiston o'lkasida saxiylik, xayriya va homiylik masalasi o'zgacha talqinda tus olgan, ya'ni turli xil jamiyat, uyushma, muassasalar negizida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, beg'araz yordam, ko'maklashuv turlari paydo bo'lgan edi. Xususan, xayriya jamiyatlarining tashkil etilishi va rivojlantirishi Turkiston o'lkasining ozodligi uchun ijtimoiy-madaniy kurash olib borgan jadidlar faoliyatining bir yo'nalishi sifatida namoyon bo'ldi. Dastlab, Turkiston o'lkasida musulmon xayriya jamiyatlarini tashkil etish masalasi ilk bor 1906-yilda "Taraqqiyy" gazetasida muhokama qilingan. O'sha davrda faoliyat yuritgan "Vaqt" gazetasining 1908-yilgi sonlaridan birida qayd etilishicha, muallif Turkiston o'lkasida hech qanday xayriya jamiyati mavjud bo'lmaganini afsus bilan qayd etgan. Mazkur nashrda ijtimoiy-iqtisodiy ko'mak beruvchi jamiyatlarni tashkil qilish, maktablarni ochish, kambag'allarga yordam berish o'rni, yoshlar aysh-ishratdan bosh ko'tarmaganligi, boylarning to'ylarda isrofgarchilikka yo'l qo'yayotganligi ta'kidlab o'tilgan¹. Shuningdek, ma'rifatparvar Laziz Azizzoda (1895-1987) Turkiston o'lkasidagi tiklanish davrining

¹Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. – Т.: Академпресс, 2011. – В. 263.

MUNDARIJA / CONTENTS

TAQDIM (Zebiniso Husayn KAMALOVA)	3
Temur Timur KOCAOĞLU	
Jadidchilarning chet ellarga talaba yuborishlari qachon boshlangan?.....	5
Naim KARIMOV	
Turkistonda jadid adabiyotining vujudga kelish manbalari.....	9
Ahmet KANLIDERE	
Turkiston va Volgabo‘yi madrasalarida ta‘lim va islohot.....	15
Dilorom ALIMOVA	
Turkiston jadidlarining diniy-milliy bag‘rikengligi.....	22
Vilayet Muhtar o‘g‘lu GULIYEV	
Rusya Imparatorlu‘g‘idaki musulman türk gençlerin universite e‘g‘itimine katiliminda Mirza Kazimbey’in roli.....	27
Baxtiyor HASANOV	
Turkiston jadid taraqqiyparvarlarining o‘lkada oliy ta‘limni tashkil etish borasidagi faoliyati	32
Хазретали ТУРСУН МАХАНУЖА	
Германская эпопея Турара Рыскулова.....	40
Hamidulla BOLTABOEV	
Jadidchilikning ma‘naviy ildizlari	44
Sayyid Abdulhakim Sha‘riy JUZJONIY	
Afg‘onistonda jadidlar davlatining buyuk elchisi alloma Hoshim Shoiq afandi hayotidan lavhalar.....	48
Qahramon RAJABOV	
Fayzulla Xo‘jaev va “Yosh buxoroliklar” harakati	54
Yusuf AVCI	
Çeditçi Fitrat’in dil anlayişi ve dil ekollerindeki yeri.....	60
Ulug‘bek HAMDAM	
Fitrat ijodida ma‘rifat va jaholat	67
Seyfettin ERŞAHIN	
Özbek cedidçiliginin “Islam tarihi”ne bakişi: Abdurrauf Fitrat örneği	77
Sulaymon INOYATOV	
Ota-o‘g‘il Burxonovlar Olmoniyada	97
Fatma AÇIK	
“Do‘xtur Muhammadyor” hikoyasi misolida Turkistonda jadidchilarning ta‘lim faoliyatları	104
Saidakbar AGZAMXODJAEV	
Turkiston Muxtoriyati uchun kurashning g‘oyaviy asoslari.....	117
Elçin İBRAHİMOV	
Türk dünyasinda cedidçilik faaliyetleri ve e‘g‘itime getirdiği yenilikler	121
Nurboy JABBOROV	
Fitratning Sharq va G‘arb madaniyatiga doir konseptual qarashlari	128

Аида КУБАТОВА	
Джадидизм и кыргызская интеллигенция в начале XX в.	133
Nodira MUSTAFOEVA	
Turkiston jadidlari va teatr	141
Кеменгер КАЙЫРБЕК РИЗАБЕКУЛЫ	
Ташкентский период казахского просветителя Кошке Кеменгерулы	146
Ra'no SAYFULLAEVA	
Jadid olimlarimizning ona tilimiz pivojidagi mavqeu'i.....	151
Жұмағұл САҒЫМБАЙ	
Алаш қалам қайраткерларининг нақл сўзлари Жүсіпбек Аймауытұлының афоризмдері.....	158
Halim SAID	
Jadid matbuotida siyosiy harakatlار maqsadining aks etishi.....	164
Sanobar TO'LAGANOVA	
Jadid adabiyotida estetik ideal muammosi.....	166
Алима АУАНАСОВА	
Джадиды Туркистана XX века	170
Рамиль АДЫГАМОВ	
Критическая оценка джадидизма в «Галфик ал-ахбар...» Мурада Рамзи: к вопросу переосмысления понятия	175
Nurettin NATUNOĞLU	
Уағ буһараллар hareketinin devrimci harekete dönüŝüm süreci	180
Meder SALIEV	
Kirgiz yazili metinlerinde credit hareketinin izleri	186
Zaynabiddin ABDURASHIDOV	
Buxoro jadidlarining xauŝiya jamiyatlari: maqsad va vazifalar.....	199
Гаухар ТИЛЕУКУЛОВ	
Из истории Казахского института просвещения в Ташкенте	206
Shokir G'OFFOROV	
Qatag'onga uchragan tarixchi olim. (Po'lat Soliev tavalludining 140 yilligi)	210
Жадыра ДЮСЕМБЕКОВА	
Данные газеты «Ақ Жол» о студентах в Германии	214
Vaxti Oshilova	
Jadidchilik tendensiyalari.....	218
Сауле ХОДЖИКОВА	
Серали Лапин. просветитель-интеллектуал	228
Еркин БАЙДАРОВ	
Мустафа Шокай и джадидизм: к идее единого Туркестана через просвещение.....	237
Данияр Маратұлы ИХСАН	
Берлинде оқыған қазақ – Ғазымбек Бірімжан (Торғайдан Берлинге дейінгі жол).....	241
Orziguł NAMROEVA	
Fitrat – matnshunos.....	253

Dirabo AMRIDINOVA	
Philosophical views of Ishaqkhan Ibrat	256
Adiba DAVLATOVA	
Jadid dramaturgiyasida barkamol shaxs va ideal jamiyat talqini.....	262
Parizod BAYKABILOVA	
The role of Jadidism in raising the morale of the nation	267
Baxtiyor ISABEK	
Turkistonliklarning egamanlik mujodalasi doktor Boymirza Hayit talqinida	271
Nodir RAMAZONOV	
Munavvar qori Abdurashidxonov: najot maktab, madrasa va axloq islohidadir!.....	274
Mavluda ERGASHEVA	
Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo‘jaevning huquqiy qarashlari (xotin-qizlarning haq-huquqlari to‘g‘risida)	276
Gulbahar TO‘QIMBETOVA	
Qorqalpoq adabiyotida jadidchilik namoyandalari.....	280
Saidjon HAMROEV	
Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov qarashlarida ta‘lim tizimiga e‘tibor va adolatparvarlik g‘oyalari	283
Anvar MAJIDOV	
Ta‘lim va maorif tizimini yangilashga intilgan milliy taraqqiyparvarlar	286
Nilufar ABDULLAEVA	
Jadidchilik turkiy xalqlar birligi va hamjihatligi ramzi sifatida	291
Феруза ЮСУПОВА	
Приоритеты социально-духовного идеала джадидов	295
Bahrom IRZAEV	
Turkiston istiqlolchilik kurashida jadid taraqqiyparvarlarining o‘rni	298
Farrux TEMIROV	
Sadriiddin Ayniyning “Tahsib us-sibyon” asari – jadid maktablari uchun muhim qo‘llanma.....	304
Dilnoza JAMOLOVA	
Buxoro jadidlarining “Tarbiyai atfol” jamiyati va uning Istanbuldagi shahobchasi.....	307
Шухрат МУХАМЕДОВ	
К истории становления «суули джадид» (новометодных) школ в Туркестанском Генерал-губернаторстве	313
Umida SHERMATOVA	
Cho‘lponning adabiy-estetik qarashlarida vatan timsoli	318
Xurshid SAMATOV	
Jadidlar siyosiy tafakkurining kreativ jihatlari	320
Muqaddas TOJIBOEVA	
Mo‘minjon Toshqinning “Toshkent shoirlari” tazkirasida adabiy siymolar	323

Norqobil QULMATOV	
Mustaqillik sharoitida o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Turkiston jadiclari ma'rifatparvarlik g'oyalarning o'rni va roli	328
Mahiyi UMAROVA	
Jadid she'riyatida G'arbiy Yevropa adabiyotiga xos belgilar (Bayron va Cho'ipon ijodi misolida)	330
Iroda XAJJEVA	
Talabalarda jadid ma'rifatparvarlari ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	335
Doniyor BEKCHANOV	
Jadidchilik falsafasini o'rganishga oid nazariy metodologik yondashuvlar	339
Dilshod SALAEV	
Xorazm jadiclarining xonlikda ta'lim va adabiyot rivojiga qo'shgan hissalarlari	341
Abdushokir ABDURAXMONOV	
Jadiclar xayoti va faoliyati – vatanparvarlik namunasi	345
Murod ZIKRULLAEV	
“Ulamo” jamiyatining Turkistonda milliy davlatchilik masalasidagi qarashlari	347
Абдулазиз СОБИРОВ	
Завоевание Бухарского и Хивинского ханства большевиками и движение «младобухарцев» и «младохивинцев»	351
Muslimbek ALIJONOV	
G'oziy Yunus – o'zbek teatr tanqidchiligining yirik vakili	356
Gulnoza ALIJONOVA	
Jadid taraqqiyparvari Rizouddin ibn Faxriddin ilmiy merosi Turkiya tadqiqotchilari nigohida.....	361
Sevinch YOQUBOVA	
Abdulla Avioniy she'riyatining poetik ifoda rakurslari	364
Diyorjon ABDULLAEV	
Jadiclar yohud xayriya va homiylikni odat qilgan metsenatlar faoliyati	367
Abduvali YO'LDASHEV	
Turkiston yoshlarining xorijiy ta'limi tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).....	374
Shahnoza NAZAROVA	
“Sadoyi Turkiston” gezatasida e'lon qilingan lirik namunalar va adabiy bahslar	377
Mashhura DARMONOVA	
Jadiclar faoliyati va qismatiga oid arxiv manbalari	381
Abduxoliq MINGNOROV	
Ta'lim va xorijga talabalar yuborish masalalarining Turkiston davriy matbuotida yoritilishi	384
Dildora RAXMONOVA	
Tavallo she'riyatida poetik obraz yangilanishi tadriji	386
Alisher QUDIYAROV, Ansatbay ALIMBETOV	
Qoraqalpog'istonda jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanish tarixidan	391

Serobjon XAMRAQULOV	
Turkiston jadidlarining siyosiy qarashlari (Ashurali Zohiriy, Abdulhamid Choʻlponlar fikrlari misolida)	394
Dilrabo QOZOQBOEVA	
Jadid adabiyotshunosligida mumtoz janrlar talqini	397
Murodjon MUSTAFOEV	
Jadidlar ilgari surgan gʻoyalari – Turkiy davlatlar hamkorligining asosi sifatida	400
Nilufar NAMAZOVA	
Oʻzbekistonda ijtimoiy tuzum oʻzgarishi sharoitida jadid ziyolilarining matbuotdagi faoliyati	402
Manzura JOʻRAEVA	
Qatagʻon davrida jadid ayollari taqdiri	405
Moʻminjon XOʻJAEV	
Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻonning “Bugungi turkeli (Turkiston) va yaqin tarixi” asarida jadidlar ijtimoiy-siyosiy dasturlarining yoritilishi	410
Latofat TAJIBAEVA	
Yangi oʻzbek sheʼriyatida hajviy obrazlarning estetik vazifasi	413
Aziza AXROROVA	
Maryam Sulonmurodovanning arizasi.....	418
Nasiba BOZOROVA	
Sherali Turdievning “Ular Germaniyada oʻqigan edilar” kitobi haqida	422
Davron FAYZULLAEV, Ubaydulla QUVVATALIEV	
“Sadoyi Turkiston” gazetasida maorif va maʼrifatparvarlik masalalari	424
Dilnavoz TAGʻOEVA	
Jadidlar dunyoqarashiga taʼsir etgan ijtimoiy-siyosiy omillar.....	428
Joʻrabek JUMAEV	
Turkiston jadidlarining gʻoyaviy qarashlarida yoshlar tarbiyasi	433
Dostonjon TOJIEV	
Turkiy dunyodagi soʻnggi jadid – Dr. Boymirza Hayitning “Turkiston: Rossiya va Xitoy oraligʻida” kitobi muhim manba sifatida	437
Rustamjon RAHIMOV	
Jadidlarning savdo-tijorat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish haqidagi gʻoyalari.....	441
Флора КУЛУЕВА	
Цели и идеи джадидизма в Средней Азии	446
Mashhura RASHIDOVA	
Jadid marifatparvarlari milliy – ozodlik kurashchilari.....	450
Behzodbek TURSUNOV	
Jadid taraqqiyparvarlari faoliyatida xorijiy tillar targʻiboti.....	455
Sumbula MAHMUDOVA	
Buyuk maʼrifatparvarlar merosi – bebaho xazina.....	458
Quldosh PARDAEV	
“Al-isloh” jurnalida taʼlim islohi masalasining yoritilishi.....	463

Abdug‘affor SHARAFIDDINOV	
Turkiston o‘lkasida teatr sanati va maktab-maorif tizimining shakllanishida jadidlarning o‘rni.....	468
Shohrux QOSIMOV	
O‘zbek jadid adabiyotining OAV yoritilishida adabiyotshunos Begali Qosimovning o‘rni.....	472
Shokhrukhbek OLIMOV	
Turkistan cedditçiligin fikir kaynagi olarak Osmanli ve Rusya musulmanlari basini	475
Sunnatullo MUXIDDINOV	
Samarqandlik jadid alloma Sayid Rizo Alizoda faoliyatidan lavhalar.....	487
Yunus SAFAROV	
Said Rizo Alizodaning Turkiston jadidchiligiga qo‘shgan hissasi.....	491
Iroda XAJJEVA	
Talabalarda jadid ma’rifatparvarlari ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	494
Лутфулло АБДУЛКАДИРОВ	
Обновление мусулманского общества в Центральной Азии в плане реформизма и модернизма	498
Nasriddin NAZAROV	
Tarixiy-ma’naviy qadriyatlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash omili sifatida.....	502
Hakimali AZIMOV	
Jadidlarning adolati jamiyat barpo etishga doir milliy davlatchilik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari.....	505

**“JADIDLARNING MA’RIFIY FAOLIYATI: G’OYALARI,
MAQSADLARI, VAZIFALARI VA TURKISTON
TARAQQIYOTIGA QO’SHGAN HISSASI”**

MAVZUIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

M A T E R I A L L A R I

P R O C E E D I N G S

**OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE “EDUCATIONAL
ACTIVITIES OF JADIDS: IDEAS, GOALS, TASKS AND
CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF TURKESTAN”**

Mas’ul muharrir:
t.f.d., prof. B.V.Hasanov

Muharrirlar:
Bahrom IRZAYEV
Murod ZIKRULLAYEV
Zebuniso KAMALOVA
Muslim ALIJONOV

ХК «ASR MATBUOT» bosmaхонасида chop этилди.
Босишга рухсаг этилди: 28.07. 2023й.
Блчими 60x84 1/8. «Times New Roman» гарнитураси.
Офсет усулида босилди.
Шаргли босма табоғи 64,7. Нашр босма табоғи 64,5
Тиражи 100 экз. Буюргма №
Манзил: Ш. Руствели, 1-тор кўчаси, № 8/2-10
Тел: (71) 253-18-17